Xakimova Nilufar,
Namangan davlat universiteti magistranti
E-mail: hakimovan88@gmail.com

YOSH AVLODNI TARBIYALASHDA MUSIQANING AHAMIYATI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.8030970

Annotatsiya: ushbu maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom, har tamonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishiga musiqaning ahamiyati yoritilib berilgan.

Kalit so‘zlar: yosh avlod, komil inson, vatanparvarlik tuyg‘usi, musiqa ta’limi, musiqa ohanglari, o‘zbek raqs san’ati, musiqa mashg‘ulotlari, musiqiy ta’lim-tarbiya, musiqa san’ati asarlari.

KIRISH

Mamlakatimizning ertangi kuni va kelajagi uning gullab-yashnashi hamda rivojlanishi asosan o‘sib kelayotgan yosh avlodning sog‘lom, har tamonlama yetuk va barkamol insonlar bo‘lib voyaga yetishiga bevosita bog‘liqdir. Bu esa vatanimiz kelajagi bo‘lgan farzandlarimizning jismoniy, aqliy, ruhiy va ma’naviy kamol topishi uchun qulay sharoitlar yaratishni taqozo qiladi.

O‘sib kelayotgan yosh avlodni komil inson bo‘lib voyaga yetishi uchun muntazam ravishda mamlakatimiz rahbariyati tamonidan e’tibor berib kelinmoqda. Bu esa ta’lim-tarbiya sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega bo‘lmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonining qabul qilinishi muhum ahamiyatga ega bo‘ldi [1; 2].

Bugungi kunda o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma’naviyati va milliy qadriyatlarini singdirish, yoshlarni Vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Mamlakatimizda yosh avlodni Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash nafosat tarbiyasining asosiy masalalaridan biri bo‘lib, u his-tuyg‘ularni badiiy tilda ifoda etadi, o‘quvchilarni musiqa san’ati asarlarini tushunishga, ijro etishga o‘rgatadi. Musiqa jamiyat hayotining muhim qismi, u inson hayotiga kuchli ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga ega [3].

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida vatanparvarlik tuyg‘usini tarbiyalash musiqa ta’limining asosini tashkil etadi. Xalq musiqa ohanglari, o‘zbek raqs san’ati namoyondalari ijod etgan - Ona-Vatanimiz, jonajon O‘zbekistonimiz go‘zalligini ularda mehr-muhabbatni madh etishga bag‘ishlangan xilma-xil musiqiy asarlar juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega[4;5].

Vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda O‘zbekistonning davlat ramzlari o‘quvchilarni o‘z mamlakatiga bo‘lgan ishonchlarini mustahkamlaydi. O‘quvchilarga musiqiy tarbiya berishning negizini. Vatanparvarlik, jamiyatdagi barcha kishilarni millat va elatlarni ijtimoiy-siyosiy kuch va guruhlarni birlashtiruvchi mavzudagi qo‘shiqlar muhim omildir. Bu tuyg‘u ona zaminga bo‘lgan muhabbat, uni sevish, ardoqlash, vatan ravnaqi yo‘lida g‘amxo‘rlik qilish kabi tushunchalarni qamrab oladi. Biz umumta’lim maktablarida ma’naviyati yuksak, madaniyatli, xalqparvar insonlarni tarbiyalashimiz, ularni kelajakka ishonch ruhida qo‘llab quvvatlashimiz darkor. Zero, o‘quvchilar Ona Vatanga sodiq, iymonli, vatanparvar shaxs bo‘lib voyaga yetsinlar.

Raqs san’atining kuchi tomoshabinlarga ta’sirining harakteri mazkur elementlar bilan pirovard natijada ularning birligi bilan belgilanadi va yangrayotgan qo‘shiqning idrok etayotgan kishiga yaxlit ta’sirini vujudga keltiradi. Bunda qanday qo‘shiq

insonga ta'sir etishining asosiy jihatlarini aniqlash zarurligini anglash mumkin. Raqsning xarakatlari raqs san'atining eng muhim elementi, uning emotsional o'zagi hisoblanadi. Kuyda o'ziga xos ohangdor, tovushlar shaklida qo'shiqning emotsional, g'oyaviy mazmun aks etadi. Raqsdan qo'shiq mazmunga moslik ta'lab qilinadi. Ammo kuyni qandaydir muayyan doimiy bir xil talablar doirasiga kiritib qo'yish to'g'ri emas. Binobarin kuy takrorlanmas bo'lishi lozim. Unda uyg'unlik, uslub, milliylik, ta'sirchanlik, xududiy uslublarni ifodalash vositalarining har xil turlari bo'lishi mumkin. Kuy faqat quvonchli, lirik, ko'tarinki hissiyotlarni uyg'otmaydi. U g'amginlik g'azablanish holatlarini ham vujudga keltiradi. Boshqacha aytganda, kuy faqat ijobiy kayfiyatlarni paydo qiladi. Bularning hammasi hayotning turli tomonlari – quvonch, tashvish, orzu-umid, ayriliq va hokazolarni aks ettiradigan qo'shiqning mazmuniga bog'liq. Texnik vositalar rivojlanib borayotgan hozirgi davrda, musiqa mashg'ulotlarini olib borish jarayonida har bir musiqa o'qituvchisi turli mavzuga doir bilim berishda faqatgina kitobdagi ma'lumotlar bilan cheklanib qolmasdan, mavzuga oid proeksion ko'rgazmalar, elektron dars ishlanmalari, turli dasturlardan tayyorlangan animatsiyalardan foydalanish juda muhim hisoblanadi.

Ta'lim muassasalari musiqa mashg'ulotlari davomida o'zlashtiriladigan musiqiy o'quv materiallar ichida musiqa ritmik xarakatlarga oid tushunchalar alohida o'rin egallaydi.

Har bir o'quvchining musiqiy qiziqishi, psixologik xususiyatlari, o'zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olib, o'quv materiallari «oddiydan murakkabga» tamoyiliga asoslanadi. Umumta'lim maktabida musiqa ta'limining poydevori qo'yiladi va shakllanadi. Bunda qo'shiq repertuariga katta ahamiyat berish zarur, chunki:

O'quvchilarning musiqiy qobiliyatlari (musiqiy uquvi, ritm tuyg'usi, diqqati, xotirasi, nutqi) o'stiriladi.

O'quvchilarda milliy musiqamiz, Ona – Vatan, tabiatga muhabbat, insonparvarlik, go'zallikni his etish, voha uslubini ajrata bilish tuyg'usi oshadi.

O'quvchilarni mehnatga, o'qishga, hayotga muhabbat, o'z – o'zini va atrofdagilarni hurmat qilish, o'zgalar mehnatini qadrlashga o'rgatiladi.

Har bir xalqning boy mazmunli, janr va badiiy obrazlar xilma-xilligi, ohang xususiyatlarinining o'ziga xosligi, ritmikasi va melodika (ohang) qurilishi, o'ziga xos musiqa (cholg'u)lari yaratilishi bilan farqlanuvchi jozibador musiqa asarlari, o'tgan davr mobaynida to'plangan ijobiy ishlar, yutuqlar, tajribalarni umumlashtirish, tahlil qilish, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, taniqli sozanda, xonandalar ijrosi, kompozitorlar ijodi va bugungi kundagi yoshlarning san'at yo'nalishidagi ijobiy chiqishlari, turli tanlovlardagi ishtiroki, o'rni va vazifalari, musiqiy ta'lim-tarbiyaga oid ishlar vositasida o'quvchilarni tarbiyalab, voyaga yetkazish, zamon talabi hisoblanadi. Shunga muvofiq, ta'lim jarayonini erkinlashtirish, unga yangi o'qitish tizimining joriy etish muhim vazifalardandir. Zamon, davrning o'zi ta'lim sohasini yangi texnologiyalarni olib kirish lozimligini ko'rsatadi. Hozirgi vaqtda ta'lim sohasidagi eng muhim masalalardan biri tarbiyadir. Yoshlarning tarbiyasi haqidagi hozirgi fikrlar juda xilma – xil va munozarali. Agar uni taraqqiyot bilan bog'laydigan bo'lsak, o'qituvchi, ota – ona, mahalla – kuy beradigan tarbiyadan tashqari, ularga tashqi tomondan ta'sir etuvchi vositalar ham tarbiyachi bo'lib qoladi. Ya'ni, tarozining bir pallasida internet, kompyuter, televizor va boshqa vositalar, ikkinchi pallasida biz.

Muhimi, har bir shaxs, uning ruhiy holati, axborotning qabul qilinishi, qiziqishlarini hisobga olish, eng asosiysi, ana shu har bir sanab o'tilganlar o'qituvchi, tarbiyachi tomonidan qadrlanishi kerak. Tarbiya masalasida ta'lim muassasalariga qaraganda oila va mahallaning

imkoniyatlari katta. Yoshlarninng bo‘sh vaqtlarigi ko‘proq e’tibor qaratish, qiziqishlarini rag‘batlantirish, to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish – o‘quvchilarning barchasida oila, o‘quv yurti, mahalla markaz, ya’ni, yadro bo‘lishi zarur.

Samarali bilim berish, mustaqil Vatanimizga munosib, barkamol shaxs qilib tarbiyalashdir. So‘ngi yillarda mamlakatimiz uzluksiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning asosini jahon ta’lim mazmunini o‘rganish, ilg‘or tajribalarni ommalashtirish, ta’lim - tarbiya jarayonida kam jismoniy kuch sarflab, yuksak samaradorlikka erishish yo‘lida amaliy faoliyat olib borishga e’tibor qaratilmoqda. Mazkur faoliyat doirasida noan’anaviy ta’lim uslubi sanaluvchi yangi pedagogik texnologiya nazariyasi mohiyatini chuqur o‘rganish, bu boradagi bilimlar bilan uzluksiz ta’lim tiziminining barcha bosqichlarida faoliyat ko‘rsaatyotgan xodimlarni qurollantirish, ularda ta’limni tashkil etishga nisbatan yangicha yondashuvni qaror toptirish, barcha sohalar singari musiqa sohasiga ham alohida e’tibor berilishi, o‘quvchi-yoshlarga katta imkoniyatlar eshiklari ochilishi, o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, bizga har tamonlama iste’dodli Vatanimiz ravnaqi yo‘lida fidokorona xizmat qiladigan fidoiy yoshlarimizni tarbiyalashimiz har qachongidan ham bugun muhimdir. Har tamonlama bilimli, iste’dodli Ona Vatanga mehr-muhabbatli yoshlarni tarbiyalash ota-ona, tarbiyachi, o‘qituvchilar kabi musiqa rahbarlarining ham eng muhim vazifalaridir.

Hulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda o‘zbek xalqining bir necha yillar va asrlar davomida shakllangan umuminsoniy ma’naviyati va milliy qadriyatlarini yoshlarga etkazish, ularni Vatanparvar, barkamol inson qilib tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdah ta’lim muassasalarida ta’lim va tarbiya olayotgan, kelajagimiz egalari bo’lgan yosh avlodga muntazam e’tiborni qaratish lozimdir. Bu esa o‘sib kelayotgan yosh avlod ongiga milliy musiqamizning mazmuni va ahamiyati to’grisidagi nazariy ma’lumotlarni ta’lim muassasalaridan boshlab singdirishimiz zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни. // Халқ сўзи. – Тошкент. 2020. 23 сентябрь.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги Фармони. – Тошкент: 2022. 22 январь, ПФ-60-сон.

3. Ibragimov O., Ibragimov J. Musiqa 4-sinf. Toshkent. G‘.G‘ulom, 2003.

4. Ibroximjonova G.A., Yuldoshev U.Yu. Musiqa nazariyasi. Darslik. Toshkent. 2017. - 216 b.

5. Karimova D., Yakubova Sh. Bolalar musiqa asarlari ustida ishlash. Toshkent. 2016.

Khakimova Nilufar,
Graduate student of Namangan State University
E-mail: hakimovan88@gmail.com

THE IMPORTANCE OF MUSIC IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION

Abstract: this article highlights the importance of music for the growing young generation to grow up to be healthy, fully mature and well-rounded people.

Keywords: young generation, perfect person, sense of patriotism, music education, music tunes, uzbek dance art, music lessons, music education, music art works.